



## Folklor namunalarining badiiy adabiyotdagi tahlili

**G.F. Atabayeva**

*Nizomiy nomidagi O'ZMPU Filologiya fakulteti PhD dotsenti yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Tog'ay Murodning hayoti va ijodi, "Oydinda yurgan odamlar" asarining kichik badiiy tahlili, Tog'ay Murod ijodida xalq og'zaki ijodi namunalarining ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** "Otamdan qolgan dalalar", "Oydinda yurgan odamlar", "Ot kishnagan oqshom", maqol, topishmoq, rivoyat, hikoya...

Ushbu ijodkor haqida gap ketganda o'quvchining xayoliga yozuvchi hayoti haqidagi ma'lumotlardan oldin uning "Otamdan qolgan dalalar", "Oydinda yurgan odamlar", "Ot kishnagan oqshom" kabi shoh asarlari keladi. Yozuvchi har bir asarini xalqona, sodda tilda yozgani; xalq og'zaki ijodining yorqin va betakror namunalaridan o'z o'rnida saxiylik bilan foydalanganidan, ba'zida asarlardagi obrazlar haqiqiy hayotda ham mavjud bo'lsa-ya, Tog'ay Murod bu insonlar bilan birga, bir muhitda yashagan bo'lsachi, degan o'ylar miyangizda dabdurustdan charx ura boshlaydi. Bu kabi o'ylarning barchasi Tog'ay Murodning iste'dodi, syujet yaratish qobiliyatidan ustalik bilan foydalanilganligi samarasidir, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Quyida yozuvchining hayot va ijod yo'li, qolaversa "Oydinda yurgan odamlar" qissasining kichik tahliliga to'xtalib o'tamiz.

Tog'ay Murodning asil ismi Mengnorov Tog'aymurod, 1948- yil, 3- fevralda o'zbek kurashchi polvonlarini yetishtirgan qadim Surxon tuproqlarida tug'ilgan. 18 yoshida o'rta maktabni bitirgandan so'ng, Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan. <sup>1</sup>Taniqli adabiyotshunos Umarali Normatov "Jahon adabiyotiga oshufta ko'ngil yoxud sokin qalb iztiroblari" nomli xotirasida Tog'ay Murodning talabalik yillari haqida eslab shunday deydi: "Darhol tanidim, u (Tog'ay Murod) o'qiydigan guruhga "Estetika va adabiyotshunoslik asoslari" dan dars berganman. Esladim, bu yigit darslarda doimiy xayol surib, nimanidir shivirlaganday o'zi bilan o'zi ovora - jimgina o'tirar, darsda biror marta ham savol berganini, bahs-munozalarga aralashganini bilmayman. Nihoyat sinov vaqti keldi, biletga qo'yilgan savollar bo'yicha shunaqa bulbuligo'yo bo'lib gapira ketdiki, lol bo'lib qoldim, hatto men ko'rmagan, tavsiya etmagan asarlarni ham o'qigani ma'lum bo'ldi. "Uka, shuncha

<sup>1</sup> Tog'ay Murod. Arbobl.ar.uz

narsa bilar ekansiz, nega seminar darslarida biror kalima ham so'z aytmadingiz?," – desam, "Xarakterim shunaqa ", deb qo'ya qolgan edi... Tog'ay Murod "Zarang tayoq" deb atalgan yangi hikoyasini o'qidi... Talaba yoshidagi havaskor yozuvchidan bunday "tayyor" asar kamdan-kam hollarda chiqadi. Hikoyadagi o'ta hayotiy, tabiiy, ta'sirchan lavhalar Mahmudjonni ham, meni ham o'ylatib qo'ydi, har ikkimiz ham u haqda iliq gaplar aytdik,. Tog'ay Murod esa maqtov so'zlarimizga parvo ham qilmay, shunday bo'lishini bilganday jim o'tirardi. Oradan ko'p o'tmay hikoya qaysidir jurnalda chiqdi. Asar matni keyinchalik yozuvchining "Momo-Yer qo'shig'i" qissasiga biroz o'zgartirishlar bilan kiritildi".<sup>2</sup>

Tog'ay Murod dangal, bir so'zli, to'lachadan kelgan baquvvat yigit bo'lgan. U bilan ilk marotaba suhbatlashgan, uning fe'l-atvori haqida bilmagan odamlar kibrli, odamlarni mensimaydigan manman bir yozuvchi bilan ko'rishib qoldim, shekilli, deb o'ylashgan. Adib shu qadarlik kuchli qat'iyatga ega ediki, ustoz yozuvchilardan Odil Yoqubov ular haqida shunday fikr bildiradi: "Men o'shanda Yozuvchilar soyuzining raisi edim. Biz qo'shni edik. Bir kuni ertalab telefon jiringlab qoldi. Olsam – Tog'ay Murod !

- Odil aka, - dedi u. – Men roman yozdim. Hozir sizga olib boraman. Shu bugun o'qib chiqasiz !

- Hajmi qancha o'zi ?

- O'z sakkiz bosma tovoq bo'ladi.

- Katta narsa ekan. Men hali ishga boraman. Bir kunda bitta romanni o'qib bo'larmidi ? – desam, cho'rt kesib aytdiki:

- Siz avval o'qishni boshlang! Shunda o'zingiz ham qanday tugatganingizni bilmay qolasiz !

G'alati! Bu gaplarni yozuvchining o'zi aytyapti, o'zining asari haqida shunday deyapti! Hech kim bunday demaydi-ku ! Kamda- kam odam bunday muomala qiladi-da !

- Hay, olib kel, - dedim ensam qotib.

Sal o'tmay asarni ko'tarib keldi. Asarni o'qiy boshladim. Boshladim-u kech bo'lganini ham bilmay qolibman. Xullas kalom, haqiqatdan ham, asarni kechqurungacha o'qib chiqdim"...<sup>3</sup>

Adibning xuddi shu fe'li "Oydinda yurgan odamlar" qissasining bosh qahramonlaridan biri Qoplonbek obraziga ham ko'chgan. U asar boshida qo'rs, ko'p gapirmaydigan, bo'z bola sifatida tasvirlangan. U haq va chin gapni ko'ngildan chiqarmaydigan, agarda tilga chiqarsa, yolg'on bo'lib qolishidan qo'rqadigan ruhiyat kishisi edi. Oymomo esa qizlarning sarasi, sabrli, nafaqat eri Qoplonbekning, balki, butun qishloq ahlining ko'nglidan joy olgan mehribon ayol edi. Bundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, asar to'liq inson ruhiyati, inson ko'ngli kabi tushunchalar ustiga qurilgan eskirmas asardir. Qissani o'qir ekanman, voqealar xuddiki, hozirgi hayotda sodir bo'layotgandek, Qoplonbek va Oymomo hozir ham yashayotgandek, asar esa 80-yillarda emas, yaqin kunlarda yozilib, hozirgi kun muammolarini yoritgandek tuyildi. Paxtachilik siyosati davrida yaratilgan qissa voqealari bu ikki farishtadek inson

<sup>2</sup> "Men qaytib kelaman (Tog'ay Murod zamondoshlar xotirasida)". Umarali Normatov. "Jahon adabiyotiga oshufta ko'ngil yoxud sokin qalb iztiroblari" nomli xotirasidan. 2008.

<sup>3</sup> "Men qaytib kelaman (Tog'ay Murod zamondoshlar xo2tirasida)". Odil Yoqubov " Mening xotiralarim". 2008.

taqdirini hikoya qilishi bilan birgalikda insonlarga xos go'zal fazilat va yomon illatlar, o'zbek xalqining urf-odatlarini va irim-sirimlari haqida ko'z oldingizda jonli teatr namoyishi etayotgandek gavdalanadi. Ayniqsa, maqol, topishmoq, rivoyatlarning rang-barangligi e'tiborimni tortdi. Sumalak qaynatayotgan ayollarning davra qurib, topishmoq aytish jarayoni bo'lsa, xuddiki ko'z o'ngingizda sodir bo'layotgandek: "Tuzsiz osh", "Bukri momom buk etdi, yugurib uyiga kirib ketdi", "Anavi tog'dan qaragan, manavi tog'dan qaragan, o'zimga yarashar deb bolxi ro'mol o'ragan"... Bu topishmoqlarning barchasi o'zbek xalqining bebaho xazinasidir, desam mubolag'a bo'lmaydi.

"Bedana tezotar bo'lsa o'z boshini yorar", "Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor", "Chiroying borida chinoringni top", "Ko'ngling bilan eshit, quloq aldaydi, aqling bilan ko'r ko'z aldaydi", "Qirqiga chidagan kuyov qirq biriga-da chidar" kabi maqollar qissada turli vaziyatlarda ishlatilgan. Asarda keltirilgan matallar, topishmoqlar, rivoyatlar so'zlovchi va yozuvchining nutq so'zlashdan maqsadini yanada aniq, lo'nda va tugal yetkazib berish vazifasi bilan birgalikda, bu nutqning ta'sirchanlik darajasini ham oshirib bergan.

Xulosa qilib aytganda, Tog'ay Murod bolalikdan maqol va matallarni eshitib ulg'aygan, bobo-buvilarining nasihat va maslahatlariga quloq solib katta bo'lgan, ajdodlari merosiga o'zini mas'ul deb bilgan, ustozlar ta'rifi bilan aytganda, haqiqiy yozuvchi, jonkuyar uka, chin do'st va sadoqatli farzand edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Men qaytib kelaman (Tog'ay Murod zamondoshlar xotirasida)". Umarali Normatov. "Jahon adabiyotiga oshufta ko'ngil yoxud sokin qalb iztiroblari" nomli xotirasidan. 2008.
2. "Men qaytib kelaman (Tog'ay Murod zamondoshlar xotirasida)". Odil Yoqubov "Mening xotiralarim". 2008.
3. Tog'ay Murod. Arboblar.uz